

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI: MILLIY VA GLOBAL MUAMMOLAR

Ilmiy jurnal

2025/2

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
BIOKIMYO INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI: MILLIY VA GLOBAL MUAMMOLAR” ILMIY JURNALI

(№2025/2)

Ilmiy jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan Biologiya fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan

Samarqand – 2025

Bosh muharrir: professor R.I. Xalmuradov

Bosh muharrir o‘rinbosarlari: professor H.A. Hushvaqtov, akademik B.Z. Zaripov

Mas’ul muharrirlar: professor A.L. Sanaqulov, dotsent B.S. Alikulov

T A H R I R H A Y ’ A T I

E. Gurman
R. Kushak
K. Toderich
Z. Muhammad
Yu. Bazarnova
R. Bersimbayev
Sh. Umarov
Dj. Sattorov
K. Davranov
L. Gafurova
S. Rasulov

H. Idrisov
X. Keldiyarov
T. Rajabov
M. Nosirov
A. Jabborov
H. Haydarov
S. O‘roqov
M. Kuziev
A. Sanaqulov
Z. Rajamuradov
F. Kabulova

F. Xalimov
B. Alikulov
B. Avutxonov
B. Bozorov
A. Ahmedov
Yu. Ruziev
A. Xujanov
F. Ro‘ziyev
S. Narzullayev
N. Rustamova

“Oziq-ovqat xavfsizligi: milliy va global muammolar”, “Food security: national and global problems”, “Продовольственная безопасность: национальные и глобальные проблемы» nomli ilmiy jurnalning talablari

Maqolaning formati: Microsoft Office Word, Times New Roman, 12 o’lchamda, 1,5 interval, yuqori va pastdan – 2 sm; chapdan – 3 sm; o’ngdan – 1,5 sm, satr boshi (abzats) – 1,0 sm.

Maqolaning tuzilishiga qo’yiladigan asosiy talablar: maqolaning sarlavhasi 12 so’zdan oshmasligi kerak;

muallifning ismi, ota-sining ismi, familiyasi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo’lsa, vergul bilan ajratiladi, ilmiy daraja va ilmiy unvon qisqartirilmagan holatda ko’rsatilishi lozim;

muallif (lar)ning ish joyi quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: bo’lim (kafedra), muassasa (institut), shahar va mamlakat. Shuningdek, muallifning telefon raqami, faks raqami, elektron pochta manzili keltirilishi shart;

maqolaning umumiy hajmi 8-12 sahifadan kam bo’lmasligi lozim.

Annotatsiya va kalit so‘zlar barcha maqolalar uchun 3 tilda beriladi. Annotatsiya matnining hajmi 180-200 so‘z atrofida, kalit so‘z (8-10 ta).

Ilmiy maqola matni kirish, mavzuga oid adabiyotlar tahlili, tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar, xulosa hamda adabiyotlar ketma-ketligida yoritiladi. Adabiyotlar ro‘yxati alfavit tartibida rasmiylashtirish kerak.

Grafik materiallar (shu jumladan jadval va rasmlar) tavsifli va oq-qora chop etishga mo‘ljallangan, rang-lar o‘rniga shtrix, chiziq, nuqta va h.k.dan foydalanilgan bo‘lishi kerak.

Formulalar va matematik belgilar formulalar redaktoridan foydalangan holda MS Wordda yoki MathType redaktorida bajarilishi kerak.

2025 yil, 2-son

Bir yilda to‘rt marta chop etiladi

Jurnal 2021 yildan chiqa boshlagan

“Oziq-ovqat xavfsizligi: Milliy va global muammolar” ilmiy jurnali biologiya va qishloq xo’jaligiga oid ilmiy amaliy nashr hisoblanib, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligi tomonidan 2021 yil 30-iyulda berilgan №1197-sonli guvohnomasiga binoan nashr etiladi.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Texnik muharrirlar:
G.Axmedova,
A.Rustamov

Tahririyat manzili:
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel: (90) 102-28-75, (97) 398-87-17
Faks: (66) 239-15-53
e- mail: devonxona@samdu.uz

MUNDARIJA

Kabulova F.J., Tashpulatov Y.Sh. WATER AND COASTAL VEGETATION OF ZARAFSHAN NATIONAL NATURE PARK (UZBEKISTAN) ……..... 4 – 9

Erkinov I.B., Maxammadjonov Z.U. BOG‘ QATOR ORALARIGA PUSHTA OLUVCHI QURILMA KONSTRUKSIYASI VA UNING TEXNOLOGIK AFZALIKLARI ……..... 10 – 13

Tursunova Sh.Sh., Mavlonov O., Hakimov N.X. TOG‘ RAYHONI (*ORIGANUM TYTTHANTHUM*) NING NEMATODAFAUNASI TARKIBI VA BIOTOPLAR BO’YICHA TARQALISH XUSUSIYATLARI……..... 14 – 17

Bobaeva A.S. PALETSKIY CHERKEZI (*SALSOLA PALETZKIANA*) NI PRAVARISHLASHNING AGROTEXNIK TADBIRLARI ……..... 18 – 22

Kurbanbayev I.Dj., Soatova F.B. QULUPNAY (FRAGARIA) MEVA SIFATIGA TA’SIR QILUVCHI GENETIK VA BIOKIMYOVIY MEXANIZMLAR ..... 23 – 27

Nomozova D.I., Normurodova M.A., Haydarov S.S., Hayitov D.G‘., Eshmanov D.R. QUYONLAR OZUQA MODDALARINING HAZMLANISHI VA METOBOLIZMIDA SIMBIONTLARNI RAG‘BATLANTIRUVCHI PROBIOTIKLARDAN FOYDALANISH ..... 28 – 33

Shodmonov F.A. O‘ZBEKISTONDAGI GNAPHOSIDAE (BANKS, 1892) OILASINING *MICARIA* WESTRING, 1851 AVLODI O‘RGIMCHAKLARI HAQIDA MA‘LUMOT ..... 34 – 36

Мукумов И.У., Хасанов М.А., Расулова З.А. ЗАПАСЫ СЫРЬЯ *FERULA KUHISTANICA* KOROVIN B ТУРКЕСТАНСКОМ И ЗЕРАВШАНСКОМ ХРЕБТАХ ..... 37 – 41

Abdulloeva S.F., Turaeva B.I. SAMARQAND SHAHRI TARIXIY OBIDALARI ATROFIDA MAVJUD BO‘LGAN ASRIY DARAXTLARNING MIKROFLORASI TARKIBI ..... 42 – 46

Tuvganbayeva J.Q., Qulmamatova D.E. MARJUMAK (*FAGOPYRUM ESCULENTUM* MOENCH) XORIJIY KOLLEKSIYA NAMUNALARINING BARGLARIDAGI FOTOSINTETIK PIGMENTLAR TAHLILI……..... 47 – 51

Hasanov M.A., Mukumov I.U., Mamadaminov M.X., Rasulova Z.A. SAMDU GERBARIY FONDIDA SAQLANAYOTGAN BRASSICACEAE BURNETT OILASINING TAHLILI ……..... 52 – 56

Рахмонова Р.Б., Халикова М.Б., Садриддинова М.А. ПРОЯВЛЕНИЕ НЕКОТОРЫХ КОЛИЧЕСТВЕННЫХ ПРИЗНАКОВ У ГИБРИДОВ F_1 ХЛОПЧАТНИКАС ЦВЕТНЫМ ВОЛОКНОМ ВИДА G.*HIRSUTUM* L ……..... 57 – 62

Turaeva B.I., Qutlieva G.J. SABZAVOT EKINI *SOLANUM MELONGENA* MIKROBIOMINI MIKROBIOLOGIK TAHLIL QILISH VA FITOPATOGEN MIKROMITSETLARNI ANIQLASH …… 63 – 66

Ахмеджанов И.Г., Тонких А.К., Хотамов М.М. ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ФОТОАКТИВНОСТЬЮ ФИТОХРОМА И СТЕПЕНЬЮ СВЯЗЫВАНИЯ АУКСИНА С РЕЦЕПТОРОМ В РАЗЛИЧНЫХ ПО ВИЛТОУСТОЙЧИВОСТИ ГЕНОТИПАХ ХЛОПЧАТНИКА. ..... 67 – 74

Raxmonov V.N., Tashpulatov Y.Sh. *AZOLLA CAROLINIANA* WILLD O‘SIMLIGINING EKOLOGIK TALABLARI ……..... 75 – 79

Maxkamov A.M., O‘roqov S.X., Keldiyarov X.O., Tursunov A.I. O‘SISHNI RAG‘BATLANTIRUVCHI BAKTERIYALAR HAMDA FITOGORMONLARNING *VITIS VINIFERA L.* SUV ALMASHINUV XUSUSIYATLARIGA TA’SIRI ……..... 80 – 84

Zokirjonova H., Nurniyazov A., Xasanov N. *FICUS ELASTICA* NI MIKROKLONAL KO‘PAYTIRISHNING OPTIMAL SHAROITLARI ……..... 85 - 89

Ro‘ziev Yu.S., Kushiev H.H. ANALYSIS OF CHLOROPHYLL AND CAROTENOID CONTENT IN SWEET POTATO (*IPOMOEA BATATAS L. LAM.*) LEAVES UNDER SAMARKAND SOIL-CLIMATE CONDITIONS. 90 – 93

Khamrayeva M., Tashpulatov Y., Khujanov A., Muminov S. GROWTH, DEVELOPMENT AND AMINO ACID COMPOSITION OF VEGETATIVE ORGANS OF CHELIDONIUN MAJUS L. IN GROWING CONDITIONS OF SAMARKAND REGION (UZBEKISTAN)…….. 94-98

Murodova S.S., Sobirova M.B., Rajabboeva X.T. CRISPR-CAS TEXNOLOGIYASINING KARTOSHKA O‘SIMLIGINING RIZOBAKTERIYALARIDA QO‘LLANILISHI 99-104

https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3453

TOG‘ RAYHONI (*ORIGANUM TYTTHANTHUM*) NING NEMATODAFAUNASI TARKIBI VA BIOTOPLAR BO’YICHA TARQALISH XUSUSIYATLARI

Tursunova Sh.Sh.[1], Mavlonov O.[2], Hakimov N.X.[2]

[1]*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston*
[2] *Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O’zbekiston*
e-mail: *shahlotursunova2720@gmail.com*

Annotatsiya. *2023-2024-yillar davomida Turkiston tog‘ tizmasining O‘zbekistonga qarashli qismida Tog‘ rayhoni (Origanum tytthanthum) ning nematodafaunasini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlar natijasida 31 turdan iborat nematodalar aniqlanib, ularning taksonomik tahlili amalga oshirildi. Shuningdek, qayd etilgan turlarni o‘simlikning vegetativ a’zolari va rizosfera tuprog’i qatlamlarida uchrash darajasi ham tahlil qilindi. Nematodafauna tarkibida turkumlar doirasida Rhabditida va Tylenchida, turlar darajasida esa Cephalobus persegnis, Heterocephalobus elongatus, Acrobeloides emarginatus, Chiloplacus symmetricus, Aphelenchus avenae, Ditylenchus destructor, Ditylenchus dipsaci va Paratylenchus pratensis turlari keng tarqalganligi ma’lum bo‘ldi.*

Kalit so‘zlar. *Tog‘ rayhoni, Origanum tytthanthum, Turkiston tog’ tizmasi, biotoplar, nematoda.*

Аннотация. *В течение 2023–2024 годов были проведены исследования нематодофауны душица мелкоцветная (Origanum tytthanthum) на территории Туркестанского хребта, расположенного в пределах Узбекистана. В результате исследований были выявлены 31 вид нематод, проведен их таксономический анализ. Также была проанализирована степень встречаемости зарегистрированных видов в вегетативных органах растения и в слоях ризосферной почвы. Установлено, что в составе нематодофауны доминируют представители отрядов Rhabditida и Tylenchida, а на видовом уровне — Cephalobus persegnis, Heterocephalobus elongatus, Acrobeloides emarginatus, Chiloplacus symmetricus, Aphelenchus avenae, Ditylenchus destructor, Ditylenchus dipsaci и Paratylenchus pratensis.*

Ключевые слова: *Душица мелкоцветная, Origanum tytthanthum, Туркестанский хребет, биотопы, нематоды.*

Abstract. *During 2023–2024, studies were conducted on the nematode fauna of mountain oregano (Origanum tytthanthum) in the Uzbek part of the Turkestan mountain range. As a result of the research, 31 nematode species were identified and their taxonomic analysis was carried out. In addition, the occurrence rates of the recorded species in the vegetative organs of the plant and in the rhizosphere soil layers were also analyzed. It was revealed that within the nematode fauna, the orders Rhabditida and Tylenchida were dominant, while at the species level, Cephalobus persegnis, Heterocephalobus elongatus, Acrobeloides emarginatus, Chiloplacus symmetricus, Aphelenchus avenae, Ditylenchus destructor, Ditylenchus dipsaci, and Paratylenchus pratensis were the most widespread.*

Keywords: *Mountain oregano, Origanum tytthanthum, Turkestan mountain range, biotopes, nematodes.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi hududida tabiiy biosenozlarda o‘suvchi yovvoyi dorivor o‘simliklar turlarining fitonematodalar bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganish zamonaviy parazitologiya va ekologiya uchun dolzarb hisoblanadi. Jumladan, dorivor o‘simliklar rizosferasida uchraydigan fitonematodalar ularning o‘sishi, rivojlanishi va kimyoviy tarkibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududining tabiiy biosenozlarida tarqalgan bir yillik va ko‘p yillik yovvoyi dorivor o‘simliklarning nematodafaunasi va uning tarkibidagi parazit turlarning bioekologik xususiyatlari, tarqalishi va o‘simliklar bilan biosenotik munosabatlari, hozirgacha yetarlicha o‘rganilmagan. Shunday bo‘lsada ushbu sohada ayrim faunistik tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘zbekistonda yovvoyi o‘simliklarining (ular tarkibida birnecha o‘nlab dorivor turlar ham bo‘lgan) nematodafaunasini o‘rganishga bag’ishlangan ishlarni akademik A.T.Tulaganov rahbarligida olib borishgan. Jumladan, Tulaganov A.T. va Sh.A.Ataxonovlar tomonidan Qoraqalpog’iston Respublikasi hududida semizo‘t,

bangidevona, yantoq, shuvoq, itqunok, sinanxum, qizilmiya, Amudaryo juft barglisi va boshqa dorivor o‘simliklarning nematodafaunalari o‘rganilgan. Dorivor o‘simliklari orasida parazit turlardan poya va bo‘rtma nematodalari ancha keng tarqalganligi ma’lum bo‘ldi. Bundan tashqari yovvoyi o‘simliklar faunasi tarkibidagi nematoda turlarining 16 tasi fan uchun, 25 tasi esa O‘rta Osiyo faunasi uchun yangi turlar deb qabul qilinadi [2,4]. A.N.Zemlyanskaya yovvoyi va begona o‘tlarning burtma nematodalari bilan zararlanishini o‘rganib ularning ko‘pgina turlarini (shuvoq, yantoq, bargidevona, sel’der, ituzum, oddiy qizilmiya, jag’–jag’) ildiz sistemasida bo‘rtma nematodalari parazitlik qilishi, ularda burtmalar hosil qilib, shu o‘simliklarni halok bo‘lishi gacha olib borishi mumkinligini tajribalarda isbotlaydi [3]. N.B.Adilova Samarqand tumanining Ohalik qishlog’iga joylashgan tog’li hududlarda yovvoyi dorivor o‘simliklardan zubturum (*Plantago lanceolatum* L), qoqio‘t (*Taraxacum bochun* L) va andiz (*Inula helenium* L.) kabilarning nematodafaunasini o‘rganib 77 turga mansub nematodalarni topgan. Ushbu fauna ekologik jihatdan pararizobiontlar, devisaprobiontlar va parazit fitogelmintlardan iborat bo‘lgan [1].

Hozirga qadar O‘zbekistonda yovvoyi dorivor o‘simliklar tarkibidagi nematodafauna yetarli darajada to‘liq o‘rganilmagan. Shu bois, Turkiston tog‘ tizmasining tabiiy biosenozlarida o‘suvchi dorivor o‘simliklardan biri — tog‘ rayhoni (*Origanum tytthanthum*) ning nematodafaunasini aniqlash, ayniqsa, parazit fitonematodalarning bioekologik va biosenotik xususiyatlarini o‘rganish ilmiy jihatdan muhim vazifa hisoblanadi.


Material va uslublar. Tadqiqotlar Turkiston tog’ tizmasidagi tabiiy biosenozlarda 2023-2024-yillarda amalga oshirilgan. Tog’ning o‘rta va yuqori mintaqalaridan dorivor o‘simliklari va rizosfera tuprog’i namunalarini olish, yilning bahor (aprel-may) va kuz (sentyabr-oktyabr) oylarida amalga oshirildi. O‘simlik va tuproq namunalari tarkibidan nematodalarni ajratib olishda kafedra laboratoriyasi sharoitida Bermanning voronka usuli qo‘llanildi. Nematodalar turini aniqlash usuli ularni 4 % li formalin eritmasida fiksasiyalandi hamda MBS - 2 rusumli binokulyar mikroskopida terib olinib gliserin - spirt aralashmasida hamda gliserin - jelatinli mikropreparatlar tayyorlash uslublari qo‘llanildi. O‘simliklardan va ularning rizosferasi tuprog’idan namunalar olinib nematodalar uchun tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. Tog’ rayhoni **(***Origanum tytthanthum*)ning nematodafaunasini o‘rganish uchun oligan 40 ta namunaning 34 tasi nematodali bo‘lib, ular o‘simlikning vegetativ a’zolari va rizosfera tuprog’i qatlamlari bo‘yicha quyidagicha tarqalganligini ko‘rsatdi. O‘simlikning yer ustki vegetativ a’zolaridan olingan 10 ta namunaning 6 tasida, shuncha sonda ildiz sistemasidan olingan namunalarning 9 tasida, rizosfera tuprog’ining 0-10 sm li qatlamidan olingan 10 ta namunadan 9 tasi va 10-20 sm li qatlamning barcha namunalarida nematodalar borligi aniqlandi. To‘plangan namunalarga nisbatan nematodali namunalar 85 % ni tashkil etdi. Ushbu raqamlardan ko‘rinib turibdiki tog’ rayhonining vegetativ a’zolari, ayniqsa ildiz sistemasida va rizosfera tuprog’ida nematodalar ancha zich tarqalgan.

O‘simlikning vegetativ a’zolari va rizosfera tuprog’ining 20 sm gacha qatlamidan to‘plangan nematodali namunalarni tahlil qilganimizda jami 31 turdan iborat 281 ta individ topildi. Ushbu turlarni taksonomik jihatdan tahlil qilganimizda, ular nematodalar sinfining 7 ta turkum vakillaridan iborat bo‘ldi. Lekin turkumlarning turlar tarkibi turlicha bo‘lishi qayd qilindi, ya’ni Plectida turkumi 2 ta (*Anaplectus granulosus, Proteroplectus assimilis*) turdan iborat bo‘lsa, Monhysterida (*Monhystera filiformis*) va Mononchida (*Mylonchulus sigmaturus*) turkumlari 1 tadan turlardan iborat bo‘ldi. Faunaning qolgan barcha (27 tur) vakillari Dorylaimida (5 tur), Aphelenchida (6 tur), Tylenchida (7 tur) va Rhabditida (9) turkumlariga mansub bo‘ldi. Ushbu turkumlar orasida ayniqsa Rhabditida turlar sonni va individlari miqdori (125 ta individ) bilan birinchi o‘rinda turdi. Ushbu turkumning *Panagrolaimus, Acrobeloides, Chiloplacus* avlodlari 2-3 tadan turlarga ega bo‘lishi bilan ajralib turishi aniqlandi.

O‘simlikning vegetativ a’zolari va rizosfera tuprog’i qatlamlarida nematoda turlari va ularning individlari miqdori ham turlicha bo‘lishi qayd qilindi.

Tog’ rayhonining yer ustki vegetativ a’zolarida 9 turdan iborat 28 ta individ topildi. Ushbu nematodalar faqat Rhabditida, Aphelenchida va Tylenchida turkum vakillaridan iborat bo‘ldi. Yer ustki vegetativ a’zolarida o‘z individlari bilan ustunlik qiluvchi *Heterocephalobus elongatus* va *Paratylenchus pratensis* larni aytib o‘tish o‘rinlidir.




1-rasm. Aniqlangan turlarning turkumlar bo'yicha taqsimlanishi

Shuning bilan birga tog' rayhonining yer ustki vegetativ a'zolarida Plectida, Monhysterida, Mononchida va Dorylaimida turkumlari vakillari uchratilmadi.

O'simliklarning ildiz sistemasida 18 turdan iborat 74 ta nematoda topilib, ularning 1 ta turi (*Mylonchulus sigmaturus*) Mononchida turkumiga qolgan barchasi Rhabditida (8 tur) Aphelenchida (4 tur) va Tylenchida (5 tur) turkumlariga qarashlidir. Ildiz sistemasida uchratilgan turlardan Heterocephalobus elongatus va Paratylenchus pratensis lar o'zlarining nisbatan ko'p miqdordagi individlari bilan ushbu biotopda topilgan turlardan ajralib turishdi. Lekin, ildizdagi ko'p individli turlarga *Aphelenchoides parietinus* va *Aphelenchoides helophilus*larni ham kiritish mumkin, chunki ularning individlarini asosiy qismi vegetativ a'zolarga joylashgan. Tog' rayhonining ildiz sistemasida faqat Secernentea kenja sinfi turkumlari (Rhabditida, Aphelenchida va Tylenchida) ning turlari topildi.

O'simlikning rizosferasi tuprog'i qatlamlarida ham nematodalarning turlicha tarqalganligi bilan xarakterlanadi. Tuproqning 0-10 sm li qatlamida topilgan nematodalar 7 ta turkum vakillaridan iborat bo'lib, ularning o'zaro nisbati turlicha bo'lishi qayd qilindi. Masalan, Mononchida, Monhysterida turkumlari 1 tadan turga ega bo'lsa, Plectida – 2 ta, Dorylaimida 5 ta turga ega bo'ldi, qolgan 19 ta turlar Rhabditida,



2-rasm. Tur va individlarning biotoplar bo'yicha tarqalishi

Aphelenchida va Tylenchida turkumlari vakillaridan iborat bo‘ldi. Tuproqning 10-20 sm li qatlamida uchratilgan barchasi (24 tur) 0-10 sm li qatlamda uchratilgan 7 ta turkum vakillaridan iborat bo‘ldi, lekin Aphelenchida va Tylenchida turkumlarining 3 ta turi *P. pseudoparietinus*, (*T. filiformis va Merlinius dubius*) 10-20 sm qatlamda uchramadi. Bundan tashqari ushbu qatlamda uchratilgan turlarning deyarli barchasini individlari ancha kam sonda bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Tog’ rayhoni nematodafaunasi tarkibida shunday turlar ham mavjud bo‘ldiki, ular o‘simlikning vegetativ a’zolari va rizosfera tuprog’i qatlamlarida bir xil tarqalganligi qayd qilindi. Bunday turlarga *Cephalobus persegnis, Heterocephalobus elongatus, Acrobeloides emarginatus, Chiloplacus symmetricus, Aphelenchus avenae, Ditylenchus destructor, Ditylenchus dipsaci* va *Paratylenchus pratensis* kabilarni ko‘rsatish mumkin. Fauna tarkibida shunday turlar ham uchradiki ular faqat tuproq qatlamlarida joylashgan. Shuning bilan birga nematodafauna tarkibida shunday turlar uchratildiki, ular faqat ushbu o‘simlik faunasi uchun xos bo‘ldi. Bunday turlar *Mylonchulus sigmaturus, Tylenchus filiformis* va *Neotylenchus intermedius* kabilardan iboratdir.

Xulosa. Tog‘ rayhonining nematodafaunasi 31 turdan iborat bo‘lib, ushbu turlar sistematik jihatdan tahlil qilindi. Nematodafauna tarkibida Rhabditida va Tylenchida turkumlari turlar va individlar soni jihatidan dominantlik qilishi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek tadqiqotlarda nematodafauna tarkibidagi turlar va ularning individlari asosan 0-15 smli rizosfera qatlamida tarqalishi qayd qilindi. Shuningdek, fauna tarkibida *Cephalobus persegnis, Heterocephalobus elongatus, Acrobeloides emarginatus, Chiloplacus symmetricus, Aphelenchus avenae, Ditylenchus destructor, Ditylenchus dipsaci* va *Paratylenchus pratensis* kabi nematodalar keng tarqalgan dominant turlar ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. Адилова Н.Б. – Фауна нематод некоторых дикорастущих лекарственных растений. // Самаркандского района (колхоз «Победа», «Москва») X Всесоюзное совещание по нематодным болезням сельскохозяйственных культур. Тезисы докл. и сообщ., Воронеж, 1987. стр. 71-72.

2. Атаханов Ш.А. – Некоторые данные о нематодафауне дикорастущих лекарственных растений Узбекистане IX International Nemtology Symposium. Warszown (резюме). 1968. стр. 145-146.

3. Землянская А.И. – Результаты полевых опытов по изучению мер борьбы с галловой нематодий в Узбекистане. // Труды проблемных и тематических совещаний Зоологического института АН СССР, 3; Ленинград 1954. стр. 79-96.

Тулаганов А.Т. – 1961. О нематодах диких и сорных растений Каракалпакии. В сб. «Вопросы фитогельминтологии» Москва. Изд-во АН СССР, стр. 189-198.

Maqola Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti ***F.Xalimov*** *tahriri ostida nashr qilindi.*

Oziq-ovqat xavfsizligi:
Milliy va global muammolar
ilmiy iurnali
2025-yil 2-soni
ISSN (onlayn): 2181-3973

Bosishga ruxsat etildi: 15.06.2025
"Times New Roman" garnituras